



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI: BARTER MUOMALALARI HISOBINING AYRIM MUAMMOLARI

Mamatxonov Muxitdin Zuxriddinovich

dotsent, iqtisod fanlari nomzodi

University of Economics and Pedagogy

Mamatxonov@internet.ru

Abdusamatov Qudratjon G'ayratjon o'g'li

asistent iqtisodiyot kafedrasida

University of Economics and Pedagogy

abdusamatovqudratjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15739113>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 20-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 25-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

xalqaro standartlar, zaxiralar, moliyaviy hisobot, milliy standartlar.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasi hududida barter muammolari cheklab qo'yilganligi sababli aktivlarning bir-biriga almashtirish imkoniyati mavjud emas. Barter muomalalari qo'llanilsa barcha korxonalarda moliyaviy holatining yaxshilanishiga, debitorlik qarzlarning kamayishiga, ombordagi zaxiralarning ortib ketmasligiga va tegishli ravishda daromadlarning yaxshilanishiga erishilgan bo'lar edi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida barter muomalalaridan keng foydalanilishi shu sohadagi muammolarning bartaraf etilganligidan dalolat beradi. Demak, O'zbekiston Respublikasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tar ekan, barter muomalalaridagi cheklovlarga barham berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishi bilan xalqaro hamjamiyat bilan uzviy bog'liqlikda faoliyat ko'rsatish, hamkorlik qilish, jaxon bozorlariga chiqish, investitsiyalar jalb etish kabi imkoniyatlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Demak, iqtisodiyotning barcha sohalarida oldinga intilish, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek iqtisodiyotni rivojlantirishda demokratik tamoyillarga to'la amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni davlatning iqtisodiyotga aralashishini cheklash, iqtisodiyotni yanada yangi marralarga olib chiqish uchun barcha sun'iy to'siqlarni olib tashlash kerak bo'ladi.

Xozirgi kundagi shunday to'siqlardan biri bu barter muomalalaridir.

Barter – bu bir aktivning ikkinchisiga almashtirish shartnomasi bo'lib, unda shartnoma ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqi tomonlar o'rtasida pul o'tkazilmasdan almashiniladi. Har bir tomon bir vaqtning o'zida sotuvchi va xaridor sifatida tan olinadi va tovar ayirboshlash muomalalariga sotib olish va sotish qoidalari qo'llaniladi.

Amaliyotda barter muomalalarining quyidagi ko'rinishlariga duch kelishimiz mumkin:

Korporativ barter – yirik kompaniyalar o‘z mahsulotlarini bir-biriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayirboshlaydi. Masalan, aviakompaniyalar reklama xizmatlarini yoqilg‘iga ayirboshlashi mumkin.

Xalqaro barter bitimlari – davlatlar o‘rtasidagi savdoda qo‘llaniladi. Masalan, bir davlat neftni boshqa davlatdan oziq-ovqat yoki texnikaga almashtirishi mumkin. Barter birjalari – maxsus platformalar orqali kompaniyalar mahsulotlarini ayirboshlaydi. Bu bizneslar o‘rtasida vositachilarsiz savdo qilishga yordam beradi. Raqamli barter – raqamli platformalar yordamida tovar va xizmatlar ayirboshlanadi. Masalan, bir frilanser dizayn xizmati evaziga veb-sayt yaratish xizmatini olishi mumkin.

Biroq, 1996-yildan boshlab O‘zbekistonda mamlakat ichida tovar ayirboshlash, barter muomalalari taqiqlangan. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi “Budjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1504-son Farmoni bilan belgilangan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning barchasida barter muomalalari to‘la va tartibli ravishda qo‘llaniladi. Mazkur vosita yordamida katta miqdordagi debitorlik qarzlari yopiladi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar yaxshilanadi.

Barter muomalalarini qo‘llanilishi barcha korxonalarda moliyaviy holatning yaxshilanishiga, ombordagi zaxiralarning kamayishiga va tegishli ravishda daromadlarning ortishiga olib kelishi mumkin bo‘ladi.

Barter muomalalari o‘zining bir qator afzalliklari va kamchiliklariga ega:

Afzalliklari:

- 1) Debitorlik qarzlarini kamaytirish.
- 2) Tovar aylanmasini orttirish.
- 3) Ombordagi zaxiralarni kamaytirish.

Kamchiliklari:

Almashtiriladigan aktivlarning baholarini ob‘ektiv baholashdagi qiyinchiliklar.

Aktivlarni almashtirishda ularning bir-biriga moslarini aniqlashning qiyinligi.

Barter muomalalarining soliqqa tortilishidagi muammolar.

Bozor iqtisodiyotining rivojlantirilishida demokratik taomillarning katta ahamiyatini hisobga olsak, xozirgi umumiy iqtisodiy vaziyat ayirboshlash muomalalarini har hil taqiqlashlardan chiqarish kerak degan hulosaga olib keladi.

Buning uchun barter muomalalaridagi muammolarni yechish kerak bshladi. Bunday muammolardan biri almashilayotgan aktivlarning xaqqoniy qiymatini aniqlashdir. Haqqoniy qiymat - baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o‘tkazish uchun to‘lanishi mumkin bo‘lgan narx.

13-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti xaqqoniy qiymat deb ataladi va unda aktivlarning xaqqoniy qiymati hamda uning aniqlanishi tartibi aks ettirilgan.

Barter muomalalarida esa ayirboshlanayotgan aktivlarning xaqqoniy qiymatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu mulkni kam baholash yoki ortiqcha baholashdan qochishga yordam beradi.

Haqqoniy qiymat bozor narxlari, ekspert baholari yoki boshqa ob‘ektiv ma‘lumotlar asosida aniqlanishi mumkin. Aynan barter muomalalari bo‘yicha har bir aktiv bo‘yicha uning bozor qiymati aniqlanadi, biroq ularning sof sotish qiymatida almashinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Barter muomalalarida o'xshash va o'xshash bo'lmagan aktivlarning e'tiborga olinishi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o'xshash aktivlar tovarlarning tovarlarga almashinishi yoki o'xshash bo'lmagan aktivlarga tovarlarni xizmatlarga almashish nazarda tutiladi.

O'xshash aktivlarning qiymatlari va ularni baholashda qiyinchilik bo'lmasligi mumkin, biroq o'xshash bo'lmagan aktivlarda bu muammo yuzaga keladi.

Ishlab chiqarishda kimgadir ortiqcha bo'lgan uskuna boshqalar uchun zarur bo'lishi mumkin, pul mablag'lari muammosi esa xizmat ko'rsatish orqali qoplanadi. O'rtadagi farq soliq majburiyatini yuzaga keltirishi mumkin bo'ladi.

Asosiy masalalardan biri bu soliqlar hisobini to'g'ri yuritilishi bo'lib, almashinadigan aktivlarning erkin bozori bo'lishi katta ahamiyatga ega.

Almashinadigan aktivlarning aniq baholarini, ularning xaqqoniy qiymatini aniqlashda internet ma'lumotlaridan ham foydalansa bo'ladi. Bu soliq hisobini aniq yuritishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Barter muomalalari bo'yicha hisob yuritishda uning o'ziga hos hususiyatlarini hisobga olish kerak.

Barter muomalalarining o'ziga hos hususiyatlari:

- a) Barter bitimi tuzishda tomonlar o'rtasida qarzlarning mavjudligi;
- b) Almashtiriladigan aktivlarning narhlari o'rtasidagi tafovutlar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda:

hujjatlashtirish ishlarida, eksport va import shartlarini nazorat qilish shakllarida.

Agarda tashqi iqtisodiy faoliyatda barter muomalalarini taqiqlanmaganligini hisobga olsak, amaliyotda shu sohadagi tajribalardan foydalanish ham yaxshi natijalar berishi mumkin.

Barter muomalalarining barcha hisob-kitoblarini, shu jumladan almashishda yuzaga keladigan soliqlarni va ularning to'liq hisob-kitoblarini elektron dastur yordamida bajarish mumkin. Bu barter muomalalarida noqonuniy hatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 avgustdagi "Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1504-son Farmoni. T. 09.08.1996 y.
2. "Haqqoniy qiymat" Moliyaviy hisobining 13-sonli xalqaro standarti. QMMB: 10/22/3400/1087-son 13.12.2022y
3. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Роль цифровизации в развитии социально экономических систем в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 83-86p. <https://colloquium-journal.org/wp-content/uploads/2022/06/Colloquium-journal2022-138-1>.